

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI



Ro'yxatga olindi: № 60320400.1.08

2023-yil "31" -avgust

O'ZBEK ADABIYOTI FAN DASTURI

Bilim sohasi:

100 000 - Ta'lim
200 000 - San'at va gumanitar fanlar
300 000 - Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
700 000 - Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari

Ta'lim sohasi:

110000 - Ta'lim
210000 - San'at
320 000 - Jurnalistika va axborot

Ta'lim yo'nalishi:

710 000 - Muhandislik ishi
60211000 - San'atshunoslik (sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi)
60211000 - San'atshunoslik (kino san'ati tanqid va tahlili)
60211000 - San'atshunoslik (teatrshunoslik)
60112400 - Professional ta'lim (60211900-Xalq ijodiyoti vocal ijrochiligi)
60112400 - Professional ta'lim (60211900-Xalq ijodiyoti cholg'u ijrochiligi)
60211100 - Aktorlik san'ati (dramatik teatr va kino Aktorligi san'ati)
60211100 - Aktorlik san'ati (qo'g'irchoq teatr Aktorligi)
60211100 - Aktorlik san'ati (musiqali teatr Aktorligi)
60211100 - Aktorlik san'ati (estrada Aktorligi san'ati)
60211200 - Rejissorlik (kino va televideniye rejissorligi)
60211200 - Rejissorlik (qo'g'irchoq teatr rejissorligi)
60211200 - Rejissorlik (Estrada va ommaviy tomoshalar rejissorligi)
60211200 - Rejissorlik (musiqali teatr rejissorligi)
60210100 - Texnologiya san'ati (kino, televideniye va radio ovozi rejissorligi)
60210200 - Kino-teleoperatorlik
60212000 - Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish
60320400 - Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya)
60211900- Xalq ijodiyoti (ashula va raqs)
60211900- Xalq ijodiyoti (folklor va etnografiya)
60723100 - Qo'g'irchoq ishlab chiqarish texnologiyasi
60210300 - San'atda animatsiyaviy va multimediyaviy loyihalash
60211700 - Grim san'ati
60211800 - San'at sohasida prodyuserlik

3. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshita ustuvor yo'nalishi bo'yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI.	
4. Abdurrahmonov A. Turkiy adabiyotining qadimgi davri. - T.: 2005.	
5. Mirvaliyev S. XX asr o'zbek adabiyoti. - T.: 2005.	
6. Komilov N. Tafakkur karvonlari. - T.: Ma'naviyat, 1997.	
7. Mirzaeva. Z. XX asr o'zbek adabiyotining Amerikada o'rganilish. Monografiya. "Fan". - T.: 2011. 263 bet	
8. Quronov D., Mamajonov M., Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati. - T.: Akadennasht, 2010.	
Axborot manbalari 1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali 2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 3. www.alishernavoiy.uz 4. www.ziyo-net.uz 5. www.literature.uz 6. www.kutubxona.uz	
7.	O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: S.I.Mahmudova – O'zDSMI o'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.
9.	Taqrizchilar: I.Ostonaqulov - O'zDSMI o'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti . t.f.d L.I.Toshmuhamedova - O'zJOKU o'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, f.f.n

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS-Kreditlar	
377 O'ZA 20014	2023/2024	1-2	4	
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari		
Majburiy	o'zbek/rus	2		
I.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O'zbek adabiyoti	60	60	120
2.	I. Fanning mazmuni Fan dasturi o'zbek adabiyotining jahon adabiyotida tutgan o'rnini, barcha adabiyotlar bilan chambarchas bog'liqligi, taraqqiyot tamoyillari, tarbiyaviy mohiyati, didaktik xususiyatlari, badiiy adabiyotdagi uslubiy izlanishlar, janrlar rang-barangligi hamda boshqa fanlar bilan aloqasi kabi masalalarni qamrab oladi. Ushbu fan ijod va ijodkorlikning umumiy qonuniyatini o'rganishda, badiiy adabiyot, san'at va madaniyat taraqqiyotini, uning o'zaro aloqador muammolarini anglab, tahlil qilishda talabalarga ilmiy-nazariy jihatdan tayanch bo'ladi, ularning ilmiy va amaliy imkoniyatini rivojlantiradi. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi 1-Mavzu. Kirish. O'zbek adabiyoti fanining predmeti va vazifalari. Qadimgi adabiy yodgorliklar Adabiyotni o'rganishning metodologik asoslari va uni davrlashtirish tamoyillari. O'zbek adabiyoti tarixining taraqqiyot davrlari. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar. Ularning asosiy manbalari. Mif va afsonalar qadimgi hayot aksini, tabiat haqidagi tasavvurlarning badiiy ifodasi ekanligi. Yozma yodgorliklar. "Avesto" yodgorligi (er. av. VII asr) zardushtiylarning muqaddas kitobi ekanligi. "Avesto" qadimgi mif va afsonalar majmuidan sifatida. Zardusht shaxsi haqidagi ma'lumotlar. Uning tarkibiy tuzilishi. "Avesto"ning ilmiy-tarixiy qimmatini. "Avesto"ning o'rganilishi tarixidan. "Avesto" adabiy manba sifatida. O'rxun-Enasoy obidatlari (VI-VIII asrlar) adabiy manba sifatida. Yodgorliklarning yaratilish tarixi va tarqalishi o'rnini. Ularning kashf etilishiga oid ma'lumotlar. Bilka Qoon yodgorligida Vatan dahlsizligi uchun kurashning aks etganligi. Kul Tegin yodgorligi. O'rxun-Enasoy toshbitiklari adabiy manba sifatida. Toshbitiklarning til xususiyatlari, adabiy qimmatini. 2- Mavzu. IX-XII asrlar adabiyoti. Turkiy tildagi didaktik adabiyot IX-XII asrlar adabiyoti. Islom dinining kirib kelishi. Islomiy adabiyot va uning umumitürk adabiyotiga ta'siri. Islom madaniyatining shakllanishi va musulmon intibohi (renessansi). Somoniylar, saljuqiylar, g'aznaviylar va qoraxoniylar davrida islomiy madaniyat. Markaziy Osiyo buyuk islom allomalari vatani: Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino asarlarida adabiyot masalalari. Turkistonda tasavvufning vujudga kelishi va tarqalishi. Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodining manbalari. "Qutadg'u bilig" hamda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalar. Dostonda axloqiy va estetik qarashlar. Asarning ahamiyati. Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining manbalari. Adib Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. "Hibat-ul haqqiyiq" asari. Asar mavzusi va tarkibi. Hadislar asosida badiiy asar yaratish an'anasi. Asarning badiiy xususitlari. Xoja Ahmad Yassaviy ijodi. Turkiy she'riyatda hikmat janrining shakllanishi. "Devoni hikmat" asari va uning tarkibi.			
3- Mavzu. XIII-XIV asrlar adabiyoti				
XIII-XIV asrlarda Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy hayot. Chingizxon bosqini.				

Uning madaniyat, adabiyotga salbiy ta'siri. Xorazm adabiy muhiti. Pahlavon Mahmud ruboiylari.	Nosiriddin Rabi'g'uziy hayoti va ijodining manbalari. Adib ijodining o'rganilish tarixidan. Payg'ambarlar tarixi asosida yaratilgan asarlar. "Qissasi Rabi'g'uziy" ("Qissas ul anbiyo") asarining tarkibi. Asar tarkibidagi hikoya va mumtoz she'riy janrlar.
4- Mavzu. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti	Temuriylar davrida madaniy hayot. Samarqand, Hirot shaharlarining madaniy markazga aylanishi. Tarixnavislik. Sharafiddin Ali Yazdiy va Sharafiddin Shomiy asarlari. "Temur tuzuklari" asarida davlatchilik va boshqaruv masalalari.
	Noma janri va uning manbalari. Xorazmiy va uning "Muhabbatnoma" si. Munozara janri. Yusuf Aniriy va uning "O'q va yoy" asari. "Yusuf va Zulayho" dostoni. Atoiy va Sakkokeyning lirik merosi. Lirikaning mavzular ko'lamini va timsollar olani.
	Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati. Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi. Navoiyshunoslik tarixidan. Alisher Navoiy ijodining ilmiy mezonlar asosida o'rganilishi.
	"Navodir-un nihoya" devonlari. "Xazoyin-ul ma'oni" – lirik qomus sifatida. "Xazoyin-ul ma'oni" kulliyotining yaratilish tarixi, tarkibiy tuzilishi.
	Alisher Navoiy "Xamsa" si va xamsanavislik an'anasi. "Xamsa" dostonlari mavzusi, tuzilishi, janriy xususiyatlari. Alisher Navoiy obrazi – sahnada va ekranda.
5- Mavzu. Bobur hayoti va ijodiy merosi	Bobur hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. Shoirning hayoti va ijodiy faoliyati aks etgan manbalar. Bobur she'riyati. Devonining janr xususiyatlari. Badiiy mahorati.
	Ilmiy va falsafiy merosi. "Arzu risolasi" da turkiy aruz masalalari. "Mubayyin" ta'limiy-tasavvufiy asar sifatida. "Volidiyya" asarida Xoja Ahror Valiy ta'limoti. "Boburnoma" tarixiy, memuar asar. Uning yaratilish tarixi. "Boburnoma" ning badiiy xususiyatlari.
	Bobur va boburiylar tarixining xorijda o'rganilishi. Bobur obrazi – badiiy adabiyotda, sahnada va ekranda.
6- Mavzu. Xonliklar davri o'zbek adabiyoti. Qo'qon va Xorazm adabiy muhiti vakillari ijodi	Qo'qon xonligidagi madaniy hayot. O'rganilishi. Adabiy muhitning shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlari. Mashrab hayoti va ijodi manbalari. Mashrabshunoslik tarixidan. "Qissasi Mashrab" asarining shoir dunyoqarashi va hayotini o'rganishdagi ahamiyati. Mashrab lirik merosining mavzu doirasi.
	Uvaysiy hayoti va ijodi. O'rganilish tarixi. Adabiy merosi. She'riyatining mavzu va g'oyaviy ko'lamini. Shoiri ijodida ishq talqini. Ijtimoiy hayotga munosabati.
	Mohlaroyim Nodira hayoti va ijodi. Shoiraning davlat arbobi sifatidagi faoliyati. Tarjimai holi. Nodira va Umarxon munosabatlari. Uvaysiy bilan munosabatlari. Nodiraning she'riy merosi. Devondagi g'azal, muxammas, ruboiy, fard kabi janrlar tabiati. Qo'qon adabiy muhiti vakillari obrazi – adabiyotda, sahnada va ekranda.
	Xiva xonligidagi madaniy hayot. Adabiy muhitning shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlari. Shermuhammad Munisning ijodiy faoliyati. Adabiy, ilmiy merosi. «Munis-ul ushshoq» devoni. Munisning ilmiy merosi. "Savodi ta'lim" risolasi. Uning ilmiy-badiiy qimmatlari. Tarixiy asarlari. Tarjimalari. Adib ijodining o'zbek adabiyoti tarixidagi maqomi.
	Ogahiy hayoti va ijodi manbalari. O'rganilish tarixi. Shoirning adabiy-ilmiy merosi. "Ta'viz-ul oshiqin" devoni. Ogahiy - tarixnavis. Tarixiy asarlarining qomusiy tabiati haqida. Ularning ilmiy va badiiy qimmatlari. Xorazm tarjima maktabida Ogahiyning o'rni. Tarjimalarning ahamiyati.
7- Mavzu. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining ilk bosqichi	Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining birmunchi bosqichi "ilk mustamlakachilik davri adabiyoti" 1865-1905 yillarni o'z ichiga oladi. Davrning murakkab va ziddiyatli voqealarga to'la kartinasi tarixiy-badiiy asarlarda o'z ifodasini topdi.
	Muqimiy (1850-1903). Hayoti va adabiy merosi o'rganilishi tarixi. Tarjimai holi. Toshkentdagi hayoti (1887, 1892, 1899-yillar). Hayotining so'nggi yillari. Ijodiy merosi: lirikasi, hajviyoti. Shoir satirasida siyosiy mavzu. Yumori. "O'q", "Ko'sa" turkumlari). "Sayohatnoma" lari.

3. Turkuiy tildagi didaktik adabiyot namunalari tahlili	4. Temuriylar davri adabiyoti va uning vakillari haqida tavsiya qilingan adabiyotlarni o'rganish
5. Alisher Navoiy asarlarining sahna va ekran talqinlari	6. Tavsiya etilgan badiiy asarlar tahlili
7. "Boburnoma" asarini o'qib o'rganish	8. Xonliklar davri adabiyoti vakillari ijodi haqida qo'shimcha adabiyotlarni o'rganish
9. Milliy uyg'onish davri adabiyoti bosqichlari	10. Jadid adabiyoti vakillari ijodi
11. Jadid adabiyoti namunalari sahnada va ekranda	12. Sho'rolar davri adabiyoti namunalari bilan tanishish
13. XX asr o'zbek adabiyoti namunalari sahnada va ekranda	14. Istiqol davri adabiyoti namunalari o'qish va tahlil qilish
Mustaqil o'zlashtirilgan mavzular bo'yicha talabalarining referatlar tayyorlashi va uni taqdimot qilishi tavsiya etiladi.	V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari
3. Talaba bilishi kerak:	-o'zbek adabiyotining taraqqiyoti tamoyillari, ijodkorlar adabiy merosi, badiiyat namunalari individual, milliy va umuminsoniy jihatlari haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)
	- badiiy adabiyotni tushunish ko'nikmalarini shakllantirish, noyob adabiy hodisalarning jamiyat, millat va shaxs rivojidagi ahamiyatini bilishi va ularidan foydalana olishi; (ko'nikma)
	- Talaba adabiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash, badiiy asarlarni tahlil va tadqiq etish, ularni ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish, egallangan bilim va malakani xalq ma'naviyatini rivojlantirish yo'lida amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)
4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:	-interfaol aqliy hujum;
	-keys-study;
	-klaster;
	-mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar;
	-guruhlarda ishlash;
	-intellect karta;
	-nooddiy testlar;
	-prezentatsiya tayyorlash.
5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:	Joniy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha og'zaki savol-javob yoki test yechish.
6. Asosiy adabiyotlar	1. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: Sano – standart, 2018.
	2. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U. va b. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – T.: Ma'naviyat, 2004.
	3. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. – T.: Yangi asr avlodi. 2005.
	4. Karimov N. va b. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – T.: O'qituvchi, 1999.
	5. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: 2005.
	6. Volhidov R.I., Eshonqulov N.R. Ozbek mumtoz adabiyoti. – T.: 2006. 527 bet
Qo'shimcha adabiyotlar	1. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston NMIU. 2016. – B.56.
	2. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston NMIU. 2017. – B.104.

Furqat (1859-1909). Tarjimai holi. Farg'ona hamda Toshkent davri faoliyati. Yangicha ma'rifatarparlik faoliyati. Rus mustamlaka siyosatiga munosabati. Chet ellardagi faoliyati. Ijodiy merosi: lirikasi, manzumalari va nasriy asarlari. Publistikasi.

Ishoqxon Ibrat (1862-1937). Ma'rifatarpar shoir, publistik, tarixshunos, tilshunos olim, sayyoh, ilk o'zbek matbaachilaridan biri sifatidagi faoliyati. Hayoti va ijodi. Chet ellarga sayohati. "Usuli jadid" maktablari ochishi. "Matbaai Ishoqiya", "Kutubxonai Ishoqiya" ning vujudga kelishi. Matbuotda chop etilgan asarlari. Ilmiy faoliyati. Ibratshunoslik.

8-Mavzu. Milliy Uyg'onish davri jadid adabiyoti

XX asr boshlari Turkistonda ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot. Jadidchilik. Turkistonda jadidchilikning rivojlanish bosqichlari. Davrlashtirish tamoyillari. Ma'rifiy islohotlar davri. Ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy kurashlar davri.

Madaniy-adabiy hayot (1905-1917). "Usuli jadid" maktablari. Milliy matbuot. Xayriya jamiyatlari va boshqa turli ma'rifiy tashkilotlar. Yangi milliy teatr. Badiiy adabiyot. Adabiy tanqid. Badiiy tarjima.

Ijtimoiy-tarixiy voqealar. 1917-yil fevral inqilobi va uning Turkistondagi aks-sadosi. Milliy ozodlik va mustaqillik uchun kurash g'oyalari. "Turkiston muxtoriyati".

Ismoilbek Gasprinskiy (1851-1914) va Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) Ismoilbek Gasprinskiy hayoti va faoliyati. Jadid maktablarining ta'sirchisi. Gasprinskiy va Turkiston. Badiiy asarlari Turkiston mavzusi. Adabiy-estetik qarashlari.

Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919). Hayoti va faoliyatining o'rganilish tarixi. Tarjimai holi. Turkistonda jadid maktablarining targ'ibotchisi va tashabbuskorlaridan biri. Behbudiy va Turkiston milliy matbuoti. Ijodiy merosi. "Padarkush" pesasi. Publistikasi. Adabiy-estetik qarashlari.

Abdulla Avloniy (1878-1934) Hayoti sahifalari. Ijtimoiy faoliyati. Avloniy - Akkor, rejissor, xormeystr, teatr badiiy rahbari, dramaturg, tarjimon. Ijodiy merosi. Pedagogik asarlari, she'r iyyati, dramalari, publistikasi. Til, adabiyot, san'at, matbuot, maorif muammolariga oid maqolalari. Jadidchilik harakati va uning vakillarining badiiy adabiyot, sahna va ekrandagi talqinlari.

9-Mavzu. Fitrat va Cho'ipon hayoti va ijodi

Abdurauif Fitrat (1886-1938) hayoti va ijodining o'rganilishi tarixi, manbalari. Tarjimai holi. Ijodiy merosi. She'r iyyati. Nasriy asarlari. Dramalari. Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalari merosiga oid ilmiy ishlari. Tarixiy asarlari.

Cho'ipon (1897-1938) Tarjimai holi. Jadidchilik va Cho'ipon she'r iyyati. Shoirning o'zbek she'r iyyatidagi islohotlari. Hikoyalari. Dramalari. "Kecha va kunduz" romani. Romanning o'zbek realistik nasri shakllanishi va taraqqiyotidagi ahamiyati. Fitrat va Cho'ipon obrazi - sahna va ekranda.

10-Mavzu. Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi

Abdulla Qodiriy (1894-1938). Hayoti sahifalari. Ijodiy merosi. "Baxtsiz kuyov" pesasi. Jadidchilik va Abdulla Qodiriy hikoyalari. Hajviy asarlari. Birinchi roman - "O'tkan kunlar"ning yaratilishi. "Mehrobdan chayon" romani. Bu romanlarning turkiy xalqlar adabiyotiga ta'siri. Abdulla Qodiriyning 30-yillardagi ijodida zamonasozlik mayllari, buning sabablari.

Abdulla Qodiriy asarlari - sahna va ekranda. A. Qodiriy asarlarining xorijda o'rganilishi.

11-Mavzu. XX asr 30-50-yillar o'zbek adabiyoti

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek hayoti va ijodi. Yozuvchining hayot yo'li. "Qutlug' qon" romanida milliy ozodlik harakatining aks ettirilishi. "Navoiy" romani o'zbek adabiyotining eng katta yutuqlardan biri ekanligi.

Abdulla Qahhor hikoyanavislik mahorati. Yozuvchining hayot yo'li va ijodining boshlanishi haqida ma'lumot. Adib hikoyalari realizm an'analari. "O'g'ri", "Dahshat", "Mayiz yemagan xotin" hikoyalarning tahlili. Oybek va A. Qahhor asarlari - sahna va ekranda. Bu davr adabiyotining bugungi kundagi ahamiyati.

12-Mavzu. XX asr 60-80 yillar o'zbek adabiyoti

Said Ahmad va Odil Yoqubov nasri

Said Ahmad hayoti va ijodi. Yozuvchi biografiyasi va ijodining ilk bosqichi. S. Ahmad

qissa va hikoyalari mavzusi. "Ufq" trilogiyasi. Adibning zamonaviy mavzudagi hikoyalari.

Said Ahmad asarlari sahna va ekranda.

Odil Yoqubov hayoti va ijodi. Yozuvchi biografiyasi va ijodining ilk bosqichi. O. Yoqubov o'zbek adabiyotida tarixiy-polifonik romanning asoschisi ekanligi. "Ulug'bek xazinasi", "Ko'lna dunyo", "Diyona" romanlari tahlili. Odil Yoqubov asarlari sahna va ekranda. Bu davr adabiyotining bugungi kundagi ahamiyati.

13-Mavzu. Istiqbol davri o'zbek she'r iyyati

Erkin Vohidov she'r iyyati

Istiqbol davri o'zbek adabiyoti. Erkin badiiy tafakkur va bugungi o'zbek she'r iyyati. An'anaviy va modern she'r iyyat xususiyatlari. Yosh o'zbek shoirlari ijodi. Istiqbol davri she'r iyyatining o'ziga xos xususiyatlari. Mavzular rang-barangligi. Zebo Mirzayeva, Ikrom Otamurod, Qutibek, Balrom Ro'zimuxammad, Qo'chqor Norqobilov, Rustam Musurmonning ko'ngil she'r iyyati tahlili. Muhammad Yusuf she'r iyyatida mavzu ko'lamdorigi E. Vohidov biografiyasi va lirikasi. E. Vohidov dostonlari. "Ruhlar isyoni" dostoni tahlili. E. Vohidov ijodida yumor.

14-Mavzu. Abdulla Oripov she'r iyyati

Shoir biografiyasi va lirikasi. A. Oripov lirikasining asosiy xususiyatlari. "Jannatga yo'l", "Hakim va ajal", "Ranjkom" dostonlarining tahlili. Shoir she'r iyyatining bugungi kundagi ahamiyati.

15-Mavzu. Istiqbol davri o'zbek nasriy adabiyoti

Istiqbol davri o'zbek nasriy adabiyoti. Erkin badiiy tafakkur va bugungi o'zbek nasri. Modern nasr xususiyatlari. Yosh o'zbek nosarlari ijodi. Istiqbol davri nasrining o'ziga xos xususiyatlari. Mavzular rang-barangligi. Tohir Malik ijodi. Yozuvchi nasriy asarlarining mavzu ko'lamdorigi. Ulug'bek Hamdam romanlari.

O'tkir Hoshimov hayoti va ijodi. O'tkir Hoshimov ijodi. Adibning hayot yo'li, dastlabki hikoya va qissalari. "Bahor qaytmaydi", "Dunyoning ishlari" qissalari yozuvchining ijodiy muvaffaqiyatlari ekanligi. "Nur borki, soya bor", "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar" romanlarining tahlili.

III. Seminar mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Avesto" - zarдушhtilikning muqaddas kitobi.
2. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida ilm-ma'rifat targ'ibi.
3. Rabg' uzyning "Qissasi Rabg' uzyn" asari.
4. Alisher Navoiy lirikasi.
5. "Boburnoma" - tarixiy-memuar asar
6. Mashrab lirikasi.
7. Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari.
8. Cho'ipon nasri xususiyatlari
9. Abdulla Qodiriy romanlarida obrazlar ruhiyati
10. Abdulla Qahhor - mohir hikoyanavis.
11. Said Ahmad nasrida davr va shaxs talqini
12. E. Vohidov "Ruhlar isyoni" dostoni tahlili
13. A. Oripov "Jannatga yo'l" dostoni tahlili
14. Tohir Malik ijodi
15. O' Hoshimov ijodi

Seminar mashg'ulotlari multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalari qullanishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishtar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. "Avesto" asarining o'rganilish tarixi
2. G'arb va Sharq adabiyotida didaktika, uning o'xshash va farqli jihatlari